

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

TASHMURADOV JURABEK TURSUNMURADOVICH

**ITLARDA NAYSIMON SUYAK SINISHLARINI TASHQI
FIKSATORLAR BILAN DAVOLASH**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

UO'K: 619.617:616.71-001.5:617-089.844

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary
sciences**

Tashmuradov Jurabek Tursunmuradovich

Itlarda naysimon suyak sinishlarini tashqi fiksatorlar bilan davolash..... 3

Ташмуратов Журабек Турсунмуратович

Лечение переломов трубчатых костей у собак с помощью внешних
фиксаторов..... 21

Tashmuradov Jurabek Tursunmuradovich

Treatment of long bone fractures in dogs using external fixators 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.V.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

TASHMURADOV JURABEK TURSUNMURADOVICH

**ITLARDA NAYSIMON SUYAK SINISHLARINI TASHQI
FIKSATORLAR BILAN DAVOLASH**

16.00.01 – Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/V85 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuu.uz) va «ZiyoNet» akboret ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|---|
| Ilmiy rahbar: | Narziyev Baxtiyor Dalievich veterinariya fanlari nomzodi, professor. |
| Rasmiy opponentlar: | Bakirov Baxtiyor Veterinariya fanlari doktori, professor G'afarov Usmon Bobonazarovich tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent |
| Yetakchi tashkilot: | Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti |

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 08/2025.27.12.V.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil « 2 » 18/04 soat « 10⁰⁰ » dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99855) 707-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14360 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.faxs: (99855) 707-76-86

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « 18 » 04 kuni tarqatildi.
(2026 yil « 18 » 04 № 11 - raqamli reestr bayonnomasi)



X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

K.X.Urokov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, v.f.f.d. (PhD), dotsent

Q.N.Norbœv
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda butun dunyoda davlat tuzilmalarining kinologiya bo'limlarida giyohvand moddalar, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashda foydalanilayotgan xizmat itlarida uchraydigan jarrohlik kasalliklari ularning xizmat vazifalarini to'liq bajarishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, itlar orasida jarrohlik patologiyalarining 43,6-52,1% mexanik jarohatlar tashkil etadi, ulardan 28,0-44,5% ni asosan suyak sinishlari¹ (ko'proq oyoq suyaklarida) egallaydi. Shu sababli, itlarda uchraydigan jarrohlik kasalliklari, xususan, suyak sinishlarining turlarini, ularning uchrash darajasini, iqtisodiy zararini, kechish jarayonini hamda klinik belgilarini aniqlash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Dunyoda itlar orasida suyak sinishlarining kelib chiqish omillari, tarqalish darajasi va turli sinish shakllarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilganiga qaramay, mazkur muammoni o'z vaqtida aniqlash, samarali davolash hamda oldini olish borasida yagona ilmiy yondashuv shakllantirilmagan. Ayniqsa, xizmat va uy hayvonlarida tez-tez uchraydigan ushbu jarohatlarni aniq tashxislash usullarini takomillashtirish, konservativ va jarrohlik davolash usullarini yangi darajaga olib chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, suyak bitish jarayonini jadallashtirish uchun ilg'or texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan dori vositalarining samaradorligi va me'yorlarini belgilash bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz davlat tuzilmalarining kinologiya xizmatida chet eldan keltirilayotgan zotdor itlarda uchraydigan jarrohlik kasalliklarini oldini olish maqsadida turli zooveterinariya choralarining amalga oshirilayotganiga qaramay, mexanik jarohatlar tufayli kelib chiqadigan jarrohlik muammolari, xususan, suyak sinishlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu vaziyatdan kelib chiqib, yuqori salohiyatga ega davlat kinologiya xizmatlarida zotdor itlarda uchraydigan suyak sinishlarini ilmiy asoslangan usullarda erta tashxislash, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va samarali davolash tizimini rivojlantirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 31 martdagi PQ-187-son "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi PF-5696-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi 750-son «Ichki ishlar organlarining

¹ Веремеи Е.И., Жолнерович М.Л., Галагуская М.А. Влияние ИДКМ на стимуляцию остеореперации при переломах длинных трубчатых костей у собак // Актуальные проблемы ветеринарной медицины: Матер. Междунар. науч.-практ. конф./ УГСХА. – Ульяновск, 2003 - Т.2. – С.184-186

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga muljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

kinologiya xizmatlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, 2023-yil 31-avgustda Vazirlar Mahkamasining 432-sonli qarori bilan ichki ishlar organlari kinologiya bo'linmalarining faoliyatini takomillashtirish, xizmat itlarini naslchilik ishlari samaradorligini oshirish hamda kadrlar salohiyatini yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Itlarda naysimon suyaklar sinishlarining etiopatogenezi, sabablari, tashxisi, davolash usullari va suyak qadog'i hosil bo'lishini faollashtirish muammosi bo'yicha xorijiy mualliflardan A.S.Bhatia, V.V.Belogurov, T.T.Bitsiev, A.D.Belov, Yu.A.Vatnikov, P.S.Kojushko, D.V.Trankvilevskiy, D.Y.Borzunov, G.M.Anderson, S.R.Baloch, K.A.Egol, S.V.Timofeev, V.N.Mitin, I.I.Logvinov A.V.Popkov va boshqalar, Respublikamiz olimlaridan A.Sh.Shakirov, B.D.Narziev, R.M.Tashtemirov, S.A.Haydarova va boshqalar tomonidan itlarda suyak sinishlarining etiologiyasini o'rganish, davolash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Shu sababli, respublikamizning kuch salohiyatiga ega davlat tuzilmalaridagi kinologiya xizmatida xizmat qilayotgan itlarda naysimon suyak sinishlarining tarqalishi va ularning kelib chiqish omillarini o'rganish, erta tashxislash uchun zamonaviy usullarni ishlab chiqish, shuningdek, samarali davolash chora-tadbirlarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida, Veterinariya jarohligi va akusherlik kafedrasida qoshidagi klinikada «Itlarda naysimon suyak sinishlarini konservativ va tashqi fiksatorlar bilan davolashni takomillashtirish» (2022-2024 yy.) va MCHJ «Miranqul agrozoovet servis ilmiy amaliy markazi» bilan «Itlarda naysimon suyak sinishlarini konservativ va tashqi fiksatorlar bilan davolashni takomillashtirish» (2024 y) bo'yicha shartnomalar asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xizmat itlarida naysimon suyaklar sinishlarini davolashda tashqi fiksatorlardan foydalanish.

Tadqiqotning vazifalari:

- itlarda naysimon suyak sinishlarini uchrash darajasini aniqlash;
- itlar orasida naysimon suyak sinishlarini kelib chiqish sabablarini aniqlash;
- itlar organizimidagi tizimlarga naysimon suyaklarni sinishini va undagi kechadigan jarayonlarga ta'sir mexanizmini aniqlash;
- itlarni naysimon suyaklar sinishi davolash uchun qo'llaniladigan operatsiya usullarini qiyosiy baholash;

tashqi fiksatorlarni hayvon organizmiga va qondagi biokimyoviy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Respublika ichki ishlar vazirligining Samarqand viloyati kinologiya xizmati markazi va Samarqand viloyati bo'xona boshqarmasi kinologiya xizmat itlari va aholiga tegishli itlar, ulardan olingan qon namunalari, simptomatik davolash vositalari.

Tadqiqotning predmeti bo'lib naysimon suyaklar sinishi bilan klinikaga keltirilgan itlarning klinik, rentgenologik tekshirish natijalari, qonning morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari shuningdek ushbu sinishlarni samarali davolash usullari va operatsiyadan keyin qo'llaniladigan dori preparatlari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda klinik, rentgenologik, tashqi fiksatsiya, qon namunalarini morfologik va biokimyoviy, statistik tekshirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor xizmat va aholiga qarashli itlarida naysimon suyaklar sinishlarining kelib chiqish algoritmi aniqlangan;

itlarda son, yelka, boldir va bilak suyaklarining sinishlarini davolashda tashqi fiksatorli osteosintez usullarini qo'llab suyak bo'laklari repozitsiyasini va fiksatsiyasini ta'minlash yuqori samara berishi aniqlangan;

itlarda naysimon suyaklar sinishini davolashda tashqi osteosintez usuli va faollashtiruvchi osteoreparativ preparatlarni muayyan doza va tartibda ishlatishga asoslangan davolash usuli ishlab chiqilgan;

itlarda naysimon suyak sinishlarida suyak qadog'ini shakllanish jarayonini faollashtirish maqsadida kasal itlarga kaltsiy D3 + Fitin tabletkasi 1 donadan 30 kun davomida kuniga 1 marta og'iz orqali berish va sinish turiga muvofiq tashqi osteosintez usullarini qo'llashga asoslangan davolash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublikaning Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlari kinologiya pitomniklaridagi xizmat itlarida va aholi qaramog'idagi 1 yoshgacha bo'lgan itlar orasida naysimon suyak sinishlarining uchrash darajasi va sabablari aniqlangan;

xizmat va uy itlarida naysimon suyaklar sinishlarining patogenezi, qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar, klinik va rentgenologik o'zgarishlar aniqlangan;

suyak sinishlarida osteosintez usuliga qo'shimcha terapevtik usullarni qo'llash bilan davolash usullari takomillashtirilgan;

itlarda naysimon suyak sinishlarini davolashda osteosintez usuli va osteoreparativ preparatlarini qo'llash usullari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi tadqiqotning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, birlamchi ma'lumotlarga ishlov berish va amaliy tahlil qilish, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar natijalari bilan chuqur ilmiy tahlil etilganligi, mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va

birlamchi materiallarga ijobiy baho berilganligi, ilmiy ish natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati itlarda naysimon suyaklar sinishlarining turlari, etiopatogenezi, tarqalish xususiyatlari, klinik belgilari, davolashda qo'llanilgan tashqi fiksator vositalar sinovdan o'tkazilganligi, itlarda klinik, gematologik va rentgenologik tekshirishlar natijasi tahlil qilinganligi, davolash vositalari hamda usullarning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, itlarda naysimon suyaklar sinishlarining qayd etilish dinamikasi aniqlanganligi, kasallikni davolashda preparatlarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida itlarning sog'ayishi va xizmat faoliyatining tiklanishi orqali kuch salohiyatiga ega bo'lgan davlat tuzilmalaridagi kinologiya xizmatiga yetkazilayotgan katta iqtisodiy zararning oldi olinganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Itlarda naysimon suyak sinishlarining keltirib chiqaruvchi sabablari, tashqi fiksatorlar bilan davolash va bitish jarayonlarini tezlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

"Itlarda naysimon suyak sinishlarini tashqi fiksatorlar yordamida davolashning klinik samaradorligi" bo'yicha tavsifyanoma ishlab chiqilgan va Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlari kinologiya pitomniklarida joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 02-oktyabr №02/23-684-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni kinologiya xizmati itlariga qo'llanilishi natijasida ularda shikastlardan yuzaga keladigan turli darajadagi naysimon suyaklar sinishini samarali davolashga erishilgan:

itlardagi son, yelka, boldir va bilak suyaklari sinishlarida tashqi fiksatorli osteosintez usullarini qo'llash kinologiya amaliyotiga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 02-oktyabr №02/23-684-son ma'lumotnomasi). Bu usullarni qo'llash natijasida suyak bo'laklarini to'g'ri repozitsiyasi va fiksatsiyasi ta'minlanib, suyak qadog'i hosil bo'lish jarayoniga rag'batlantiruvchi ta'siri berishga erishilgan;

itlarda naysimon suyaklarning oddiy va murakkab sinishlarini davolashda kam invaziv Yagnikov plastinalari va Ilizarov apparatlarini hamda Kalsiy D₃ + Fitin preparatlarini qo'llash usuli veterinariya amaliyotiga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2025-yil 02-oktyabr №02/23-684-son ma'lumotnomasi). Itlarda naysimon suyaklarning oddiy va murakkab sinishlarini davolashda ushbu kompleks davolash usullarini qo'llash evaziga singan suyak fragmentlarining repozitsiyasini va mahalliy qon aylanishining tiklanishini, suyak kallusining hosil bo'lish jarayonlarini tezlashtirishga erishilgan. Bunda itlarda naysimon suyak sinishlarini tashxis qo'yish va jarohlik yo'li bilan davolash orqali sarflangan 1 so'mga samaradorlik 3,5 so'mni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda: 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jumallarda. 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida chop etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan I bohi besh qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi «**Itlarda naysimon suyak sinishlarini keltirib chiqaruvchi sabablari**» deb nomlanib, bunda itlarda suyak sinishlariga olib keladigan mexanik, patologik va ijtimoiy omillar, shu jumladan balandlikdan sakrash, avtotransport jarohatlari, osteodistrofiya va boshqa kasalliklar natijasida suyak mustahkamligining pasayishi to'g'risida adabiyot manbalari o'rganildi. Shuningdek, naysimon suyakning anatomo-topografik xususiyatlari va uning sinish turlariga ta'sir etuvchi omillar keng tahlil qilindi.

Ikkinchi qism «**Itlarda naysimon suyak sinishlarini davolashda osteosintez usullari**» deb nomlanib, unda ichki fiksatsiya (osteosintez)ning tarixiy rivojlanishi, turli metall konstruksiyalardan foydalanish texnikalari, plastina va vintlar yordamida singan suyaklarni mustahkamlashning samaradorligi, jarrohlikning zamonaviy yondashuvlari, reabilitatsiya usullari bo'yicha adabiyot ma'lumotlari umumlashtirildi.

Uchinchi qism «**Naysimon suyak sinishlarini davolashda Ilizarov apparati va tashqi fiksatorlardan foydalanish**» deb nomlanib, unda Ilizarov apparati va boshqa tashqi fiksatsiya usullarining qullash tamoyillari, ko'rsatmalari, montaj texnikasi, davolashning davomiyligi va klinik natijalari yuzasidan turli mualliflarning tajribalari tahlil qilindi.

To'rtinchi qism «**Suyak sinishlarni davolashda qo'llaniladigan dori vositalari va ularning suyak qadog'ini hosil bo'lishga ta'siri**» bo'lib, unda antibiotiklar, analgetiklar, regeneratsiyani rag'batlantiruvchi preparatlar, osteotrop dori vositalari va ularning suyak bitishi jarayoniga ko'rsatgan ta'siri haqidagi ilmiy adabiyotlar yoritildi.

Beshin qism «Tashqi fiksatorlardan xosil bo'ladigan asoratlar ularni bartaraf qilish» deb nomlanib, unda tashqi apparatlar qo'llanilganda kuzatilgan infeksiyon, mexanik va trofik asoratlar, ularning oldini olish va davolash choralari bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar atroflicha o'rganildi.

Dissertatsiyaning «Tadqiqot o'tkazilgan joy, predmeti va uslublari» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent va Samarqand shahri kinologiya xizmati pitomniklaridagi xizmat itlari va shu shaharlar aholisiga qarashli itlar, shuningdek, ulardan olingan qon namunalari, zamonaviy diagnostik usullar, davolash uchun qo'llaniladigan xirurgik asboblari, tashqi fiksator apparatlari, terapevtik hamda antiseptik preparatlar bo'lib hisoblanadi.

Asosiy ilmiy tadqiqotlar Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Veterinariya jarrohligi va akusherlik» kafedrasida olib borildi.

Laboratoriya tahlillari «SAMARQAND DIAGNOSTIK» klinik laboratoriyasida o'tkazildi, tajribadagi hayvonlar singan suyaklarining rentgen tasvirlari Respublika ixtisoslashgan travmatologiya ortopediya ilmiy amaliy markazining Samarqand filialida olindi.

Barcha bosqichdagi tajribalarda qondagi eritrotsitlar va leykotsitlar soni (Goryaev usuli), leykogramma (leykotsitar formula), gemoglobin (Gemoglobinsianid usuli), qon zardobidagi umumiy kalsiy, anorganik fosfor miqdorlari (kolorimetrik usul) hamda ishqoriy fosfataza fermentlarining faolligi (kinetik usul) aniqlandi.

Naysimon suyaklari singan itlarni operatsiya qilishda osteosintez usullaridan foydalanib suyak repozitsiyasi ta'minlandi. Bunda singan son, boldir, yelka va bilak suyaklariga Ilizarov tashqi fiksatori o'rnatildi. Tadqiqotlar ikki bosqichda amalga oshirildi:

Naysimon suyaklari singan itlardagi davolash davrida klinik ko'rsatkichlari, singan suyakning rentgenologik holati, qonining morfologik va biokimyoviy o'zgarishlarini o'rganish tajribalari bajarildi.

Ilizarov tashqi fiksatorini o'rnatish uchun hayvon yotgan holatda maxsus moslama yordamida fiksatsiya qilinadi va singan oyoq yuqoriga ko'tarilgan holda joylashtiriladi. Og'riqsizlantirish uchun umumiy va mahalliy anestetik vositalar birgalikda qo'llaniladi. Umumiy narkoz sifatida vena tomiriga 2,5% aminazin eritmasi 1 ml/10 kg tirik massaga va qo'shimcha ravishda 2% ketamin 0,1 mg/kg miqdorida yuboriladi. Mahalliy og'riqsizlantirishda kesim chizig'i bo'ylab 0,5% novokain eritmasi qatlamlar bo'yicha infiltratsiya yo'li bilan 10–20 ml hajmda yuborildi.

Operatsiya maydonchasini tayyorlash bosqichida singan sohadagi junlar tozalanib, spitsalar o'tadigan joylar Grossix usulida tayyorlanib antiseptik moddalar bilan ishlov berildi, ya'ni 5% yod eritmasi bilan teri ikki marta dezinfeksiya qilinadi.

Operatsiya texnikasi bir nechta ketma-ket amaliyotlardan iborat. Avvalo, tayyorlov bosqichi o'tkaziladi. Unda it to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, rentgenografiya yordamida sinish joyi, suyak parchalari va ularning joylashuvi aniqlanadi va apparatning optimal konfiguratsiyasi tanlanadi. Halqalar suyakning anatomik holatiga mos ravishda tanlanib, ularning shakli va o'lchamlari moslashtiriladi. Ilizarov apparati oldindan yig'ilib, uning suyak tuzilmasiga mosligi tekshirilib, sozlanadi.

Kirshner spitsalarini o'rnatishda operatsiya joyi antiseptik bilan qayta ishlengandan so'ng, spitsalar suyakning sinish zonasining yuqori va pastki qismidan drel yordamida o'tkaziladi. Jarayon davomida yumshoq to'qimalar, pay va nerv tolalarining shikastlanmasligiga alohida e'tibor qaratildi. Spitsalar ehtiyotkorlik bilan, odatda bir-biriga perpendikulyar holda o'rnatilib, ularning barqarorligi ta'minlandi. Ba'zi hollarda Yagnikov usulida parallel o'rnatish tavsiya etiladi.

Keyingi bosqichda apparatning halqalari va tayanch qismlari spitsalarga maxsus klampalar yordamida birlashtirildi. Qurilmaning barcha komponentlari suyakning anatomik holatini to'g'ri fiksatsiya qilganligi tekshirish kerak. Halqalar va spitsalar mustahkam mahkamlangan bo'lishi va jarayon davomida suyak segmentlarining siljishi oldi olinishi lozim.

Tashqi fiksatorli osteosintez usuli yordamida suyak parchalari fiziologik holatga yaqin holda birlashtiriladi va suyak regeneratsiyasiga qulay sharoit yaratiladi. Bunday texnika suyak bitishining sifatini oshiradi va reabilitatsiya davrini qisqartiradi. Shu bilan birga, apparatning noto'g'ri o'rnatilishi regeneratsiyaning buzilishi va asoratlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkinligi tufayli, barcha texnik jarayonlar aniq va to'g'ri bajarilishi shart hisoblanadi.

Apparatni olib tashlashdan oldin rentgenografiya yordamida suyak bitgan bitmaganligi tekshirildi, suyak to'liq bitgandan keyin 27-30 kunda apparat olib tashlandi. Spitsalar klamlardan bo'shatilib, yodning 5% spirtli eritmasi bilan stirillangach suyakdan chiqarib olindi. Spitsalar o'mi ham shu eritma bilan ishlov berildi.

Naysimon suyaklar osteosintezda faollashtiruvchi terapiya sxemasi sifatida kompleks davolash tadbirlari qo'llandi. Sinish jarayonini tezlashtirish va asoratlarni kamaytirish maqsadida antibiotik terapiya, mineral moddalar bilan ta'minlash hamda antiseptik ishlov o'tkazildi.


Linkomitsin 300 antibiotigi 1 ml dozada 7 kun davomida har kuni mushak orasiga in'eksiya qilindi. Mineral moddalar sifatida kalsiy va fosfor almashinuvini tartibga soluvchi Kalsiy D3 hamda Fitin tabletkalari og'iz orqali har kuni 1 donadan 30 kun davomida berildi. Yodning 2,5% spirtli eritmasi har kuni 2 maxal jarohat atrofidagi teriga surtildi va mahalliy antiseptik ta'sir ko'rsatildi.

Olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berildi. Statistik tahlil St'yudent va Fisher mezonlari yordamida olib borildi hamda Microsoft Excel elektron jadval dasturida natijalar qayta ishlanib, ishonchlik darajasi aniqlab chiqildi.

Dissertatsiyaning «Itlarda naysimon suyaklar sinishlarining tarqalishi, sabablari va kechishi» deb nomlangan uchinchi bobi, beshta qismdan iborat

bo'lib «Toshkent va Samarqand shaharlarida itlar orasida naysimon suyaklar sinishlarining tarqalishi va kelib chiqish sabablari» deb nomlangan birinchi qismida tadqiqot o'tkazilgan hudud haqida qisqacha bayon etilgan, tadqiqotlar O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan, strategik va iqlimiy jihatdan muhim bo'lgan Samarqand shahrida olib borildi. Hududda quruq subtropik iqlim hukm suradi, aholining uy sharoitida it boqish holati nisbatan yuqori. 2022–2024 yillar davomida Samarqand viloyatidagi kinologiya pitomniklari hamda veterinariya jarrohlik klinikasiga keltirilgan 395 bosh itlar orasida suyak sinishlari bilan bog'liq holatlar o'rganildi. Shulardan 83 boshida (21,1%) suyak sinishi aniqlangan bo'lib, ularning 56 boshida (67,5%) aynan naysimon suyak sinishlari qayd etildi.

Naysimon suyak sinishlari asosan yosh erkak itlarda (o'rtacha yoshi 6,8 oy) kuzatilib, ko'pchilik hollarda (71,1 %) avtohalokatlar sababli yuzaga kelgan. Anatomik lokalizatsiya bo'yicha sinishlar son suyagida (38,1 %), boldir suyaklarida (33,1 %), yelka va bilak tirsak suyaklarida (har biri 14,3 %) qayd etilgan (1-rasm). Suyaklar morfologik jihatdan qiya, ko'ndalang, spiralsimon, bo'lakli va murakkab shakllarda sinishi bilan ajralib turgan.



1-rasm. Naysimon suyaklarning sinish darajasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, naysimon suyak sinishlari rivojlanishida tashqi mexanik omillar bilan bir qatorda, itlarni noto'g'ri oziqlantirish, D vitamini va kaltsiy yetishmovchiligi, saqlash sharoitlarining yomonligi kabi ichki omillar ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu ma'lumotlar suyak sinishlarini samarali davolash va profilaktik choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Uchinchi bobning «Itlarning suyak sinishlarida tashqi fiksatorlardan foydalanishning anatomo-topografik asoslanishi» deb nomlangan ikkinchi qismida Itlarning oyoq suyaklari uzunligi, shakli va zichligi bilan farq qilishi tashqi fiksatorlarni individual yondashuv asosida qo'llashni talab qiladi. Tadqiqot davomida suyaklarning 3D modellari asosida boldir va bilak sohasida qon tomir,

nerv va mushak-pay tuzilmalarining joylashuvi aniqlanib, fiksatorning optimal oʻrnatish burchaklari belgilandi.

Natijalar asosida spitsalarni oʻtish joylari aniqroq boʻlishi uchun 1 dan 12 gacha raqamlangan soat siferblatiga oʻxshash shablon tayyorlandi (2-rasm).

Suyakni xavfsiz mustahkamlash maqsadida spitsalar suyakning koʻndalang kesimida 90°, 120° va boshqa burchak ostida oʻtkazilib, mushaklar va nervlarning shikastlanish ehtimoli baholandi. Tadqiqot natijalariga koʻra, spitsalarni 90° burchak ostida oʻtkazish eng qulay va xavfsiz variant sifatida tanlandi, chunki boshqa burchaklarda barmoqni harakatlantiruvchi nerv tolalari va qon tomirlari zararlanishi ehtimoli oshadi.

Bilak suyagi diafiz sinishlarini davolashda dastlab suyak boʻlaklari repozitsiya qilindi, soʻng spitsalar lateral yuzadan va xavfsiz anatomik zonalardan oʻtkazildi. Spitsalar suyakning qarama-qarshi kortikal qatlamidan maʼlum



2-rasm. Boldir suyagini koʻndalang kesimidan spitsalarni oʻtish burchaklari.

masofada chiqib turishi ularni tayanch apparatga mahkamlash va fiksatsiyani mustahkamlash imkonini berdi. Jarrohlik amaliyoti davomida tirsak boʻgʻimi maksimal kengaytirilib, nerv toʻplamlarining shikastlanishi oldini olishga eʼtibor qaratildi.

Operatsiyadan keyin hayvonlarda shikastlangan oyoqqa 5–7-kunlardan boshlab tayanish kuzatilib, suyak bitishi asosan 21–27 kun ichida sodir boʻldi. Davolashning afzalliklaridan biri sifatida infeksiyon asoratlarning qayd etilmaganligi va bitish davrining nisbatan qisqaligi eʼtirof etildi. Shu bilan birga, ayrim hollarda boʻgʻim

harakatchanligining biroz cheklanishi kuzatildi. Tashqi fiksatorlar yordamida minimal invaziv usulda suyak sinishlarini samarali va tezkor davolashga erishildi.

Uchinchi bobning «Tashqi osteosintezni oʻtkazishda kuzatiladigan hato va asoratlar» deb nomlangan uchinchi qismida, tashqi fiksator oʻrnatishda kuzatiladigan xato va kamchiliklar haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Xususan, tashqi fiksatorlar teri orqali suyak bilan aloqa qilgani uchun infeksiya xavfi yuqori boʻladi. Buning oldini olish uchun esa operatsiyadan oldin teridagi junlar qaychi va moshinkalar yordamida tozalaniib 5% yod bilan ishlov berildi. Bundan tashqari operatsiyadan soʻng igna yoki sim kiritilgan joylarni muntazam tozalash va dezinfektsiyalash infeksiya xavfini minimallashtiradi. Suyaklarning notoʻgʻri birikishi yoki malunion bu suyaklarning sinishidan soʻng ularning anatomik notoʻgʻri pozitsiyada bitib ketishi bilan tavsiflanadi (3-rasm).

Ushbu holat suyak segmentlarining noto'g'ri joylashishi, davolashning noto'g'ri rejalashtirilishi yoki bemorning parvarish talablariga rioya qilmasligi tufayli yuzaga keladi.

Malunionning oldini olish uchun suyak segmentlarining to'g'ri anatomik joylashuvini ta'minlash, stabil immobilizatsiyani amalga oshirish va uni zarur muddat davomida saqlash, sinishni davolash rejasini har bir


bemorning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish va reabilitatsiya jarayoniga qat'iy rioya qilish lozim.

Uchinchi bobning «Har xil osteosintez usullarini qiyosiy baholash» deb nomlangan to'rtinchi qismida, Ilizarov va Yagnikov tashqi fiksatorlari itlarda suyak sinishlarini davolashda qiyosi baholangan.

Ilizarov usuli suyak bo'laklarini anatomik holatda yuqori darajada va barqaror fiksatsiya qilish imkonini beradi hamda deformatsiyalarni tuzatishda keng qo'llaniladi. Ushbu usul yordamida nafaqat suyak shakli, balki harakat funksiyasi ham tiklanadi, bu esa yaxshi kosmetik natija beradi. Biroq Ilizarov apparati murakkab konstruksiyaga ega bo'lib, o'rnatish va parvarish jarayoni ko'p vaqt va shifokor nazoratini talab etadi. Davolanish davomiyligi uzoq bo'lib, infeksiya xavfi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Yagnikov tashqi fiksatori esa o'rnatilishi va ishlatilishi nisbatan soddaligi bilan ajraladi. Bu usul ko'pincha murakkab bo'lmagan suyak sinishlari va kichik deformatsiyalarni davolashda samarali hisoblanadi. Fiksatorning oddiy konstruksiyasi bemorga ko'proq harakatlanish va kundalik faoliyatini davom ettirish imkonini beradi. Shuningdek, Yagnikov usulida sovuq payvandlash ham qo'llanildi. Biroq, bu usul murakkab va ko'p bo'lakli sinishlar, ayniqsa son va yelka suyaklari shikastlanishida Ilizarov usuliga nisbatan yetarli samaradorlik bermaydi.

Ushbu bobning «Tashqi fiksatorlar yordamida operatsiyadan oldin va keyin hayvonning holatini klinik va rentgenologik baholash» deb nomlangan beshinchi qismida, tashqi osteosintezning klinik va rentgen nazoratini o'rganishga qaratilgan. Itlarda naysimon suyak sinishlarini davolash jarayonini baholash maqsadida operatsiyadan oldin va keyin klinik hamda rentgenologik kuzatuvlar o'tkazildi. Klinik tekshiruvlar davomida hayvonlarning umumiy holati, tana harorati, nafas olish va yurak urish soni, ishtahasi, semizligi hamda singan oyoqdagi mahalliy o'zgarishlar muntazam kuzatildi. Operatsiyadan oldin aksar hollarda og'riq, shish, qizarish, harorat oshishi va harakat cheklanishi qayd etildi. Jarrohlikdan keyin



3-rasm. Suyakni noto'g'ri bitishi.

dastlab umumiy holsizlik, lokal yallig'lanish va eksudatsiya kuzatilgan bo'lsa, davolanishning 10–20 kunlarida klinik belgilar asta-sekin kamaygan. 25–30 kunlarda suyak bitishi jarayoni yaxshi kechganligi, umumiy holatning normallashtirilishi va suyak qadoqlanishi to'liq shakllanganligi aniqlangan.

Davolash samaradorligini baholashda rentgen tekshiruvlari muhim ahamiyat kasb etdi. Rentgenogrammlar sinish fragmentlarining joylashuvi, kallus shakllanishi, regeneratsiya jarayoni va osteosintez barqarorligini nazorat qilish imkonini berdi. Ilizarov tashqi fiksatori qo'llangan hollarda suyak bo'laklarining aniq repozitsiyasi va dastlabki kunlarda periostal-endostal reaksiyalar qayd etildi. Davolanishning 10–20 kunlarida suyak kallusi shakllanishining aniq belgilarini, 30-kunlarda esa suyak o'qi tiklanib, ilik bo'shlig'ining qayta shakllanganligini aniqlangan.

Olingan natijalar tashqi fiksatsiya usullari yordamida suyaklarning barqaror immobilizatsiyasi va regeneratsiya jarayonining yaxshi kechishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, osteoporoz va osteomieliit kabi asoratlar kuzatilmagan bo'lib, tashqi fiksatorlar suyak bitishini tezlashtirgan va oyoqlarning qo'llab-quvvatlovchi funksiyalarini qisqa muddatda tiklash imkonini bergan. Shu sababli rentgenologik va klinik monitoring tashqi osteosintezning ajralmas qismi sifatida davolash strategiyasining asosini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Itlarda naysimon suyaklar sinishlarini ilizarov apparati va tashqi fiksatori yordamida davolash**» deb nomlangan to'rtinchi bobi, yettita qismdan iborat bo'lib, «Ilizarov apparati va uning o'xshashlik variantlarini veterinariya amaliyotida osteosintez uchun qo'llash» deb nomlangan birinchi qismida tashqi fiksatorlarni veterinariyada qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Sinishlarni davolashda Ilizarov va Yagnikov tashqi fiksatorlarining turli modifikatsiyalari ishlatildi. Ilizarov apparati diametri 40–100 mm bo'lgan halqali tuzilishga ega bo'lib, murakkab va ko'p parchali sinishlarda juda barqaror fiksatsiya beradi, lekin o'rnatilishi murakkab va hayvon uchun noqulayroq bo'ladi. Yagnikov fiksatori esa monolateral (bir tomonlama) bo'lib, oddiy va o'rta darajadagi sinishlar uchun qulay, tez o'rnatiladi va rehabilitatsiyani osonlashtiradi. Shu bilan birga sovuq payvantlash usuli ham mavjud bo'lib, u o'rnatishni soddalashtiradi va xarajatni kamaytiradi, biroq suyak siljishi yuzaga kelganda uni tuzatish imkoniyati cheklangan. Tashqi fiksator tanlovi suyakning sinish joyi va murakkabligiga qarab belgilanadi, bu suyakning to'g'ri bitishi va rehabilitatsiya muddatini qisqartirishga yordam beradi.

To'rtinchi bobning, «Ilizarov apparatini operatsiya yo'li bilan o'rnatish, uni itlar organizmi va suyakni bitish jarayoniga ta'siri» deb nomlangan ikkinchi qismida tashqi fiksator o'rnatish texnikasi, o'rnatilgach organizmda kechadigan jarayonlar o'rganilgan.

Ilizarov tashqi fiksatorini samarali o'rnatilishi bevosita anestiziyaga bog'liq. Keyin esa terini ya'ni operatsiya maydoni yuqori darajada sterillik sharoitida tayyorlandi, teri yuzasi avvalo yuvilib va 5 % yod eritmasi bilan tozalandi. Suyakdan igna va spisalarni o'rnatishda sinish turi va it anatomiyasiga e'tibor berildi, bunda imkon boricha qon tomir va nervlarning kamroq shakllanishiga

e'tibor qaratildi. Ilizarov apparatini o'rnatish jarayonida halqalarni joylashtirish muhim bosqichlardan biri hisoblanadi va uning muvaffaqiyati butun davolash jarayonining samaradorligini belgilaydi. Halqalar mustahkam, korroziyaga chidamli materiallardan tayyorlanib, suyak segmentlariga mos keladigan diametrdagi tanlandi. Halqalarni suyak atrofida optimal masofada va aniq burchak ostida joylashtirish, apparatning biomexanik barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Halqalar ignalar yoki spisalarni yordamida suyak bo'laklaridan o'tkazilib, maxsus qisqichlar orqali mahkamlanadi. Bu usul suyak segmentlarini 3 o'lchovli fazoda qat'iy ushlab turish imkonini beradi va suyak to'g'ri joylashish hamda deformatsiyasiz bitishiga xizmat qiladi.

Taranglikni sozlash – spitsalarning (ignalarning) to'g'ri tortilishi – butun osteosintez jarayonining biomexanik barqarorligi va samaradorligini belgilovchi muhim bosqich hisoblanadi.



4-rasm. Gemoglobinning o'zgarish dinamikasi (g/l).

Taranglik noto'g'ri sozlangan holatlarda apparat barqarorligi pasayadi, suyak segmentlarida mikroharakatlar yuzaga keladi, bu esa regeneratsiya jarayonini sekinlashtiradi yoki yallig'lanish xavfini oshiradi.

Spisalarni apparat halqalariga mahkamlashda ularning bir-biriga nisbatan 90° yoki 60° burchak ostida kesishishi biomexanik jihatdan barqaror "krest-forma" hosil qiladi. Operatsiyadan keyin 5–7 kun oralig'ida spisalarning qayta taranglanishi tavsiya etiladi, chunki yumshoq to'qimalar va suyakdagi o'zgarishlar fonida ignalar tarangligi o'zgaradi.

Tashqi fiksatorning organizmga ta'sirini va bitish jarayonlarini kuzatish maqsadida rentgenologik tekshiruvlar amalga oshirildi. Rentgenologik tekshiruvlar orqali esa apparat o'rnatilgan suyak segmentlarining holati, suyak regeneratsiyasining tezligi va yo'nalishi, kallus hosil bo'lish bosqichlari hamda apparat elementlarining joylashuvi muntazam baholab borildi.

